

SHASHMAQOMNING ASHULA VA CHOLG'U BO'LIMIDAGI ASARLARNING YOSH AVLODGA O'RGATISHDA QO'YILADIGAN TALABLAR

*Hakimova Mohigul Hamitova; Hamidov Shaxzod Sohib o'g'li
Sayfuloyev Firdavs Ixtiyorovich*

Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom maktab internati o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada, shashmaqomning ashula va cholg'u bo'limidagi asarlarning yosh avlodga o'rgatishdigan talablar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: shashmaqom, ashula, cholg'u bo'limi, cholg'u asboblari, asar, yosh avlod, talablar.

Annotation: This article talks about the requirements of teaching the young generation of works in the singing and instrumental section of shashmaqom.

Key words: shashmaqom, singing, musical department, musical instruments, work, young generation, demands.

Аннотация: В данной статье говорится о требованиях к обучению подрастающего поколения произведениям в певческой и инструментальной части шашмакома.

Ключевые слова: шашмаком, пение, музыкальное отделение, музыкальные инструменты, работа, молодое поколение, требования.

Avvalo shashmaqom haqida tushunchaga ega bo'lib olsak, shashmaqom Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan bo'lib, jami 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan iborat. Shu qunga qadar sozanda, hofiz va bastakorlar maqom yo'llarining qo'plab ijroviy talqinlarini kashf etdilar, ovoz, tanbur, surnay, dutor va boshqalar maqom yo'llarida bir qismli va turkumli asarlar ijod qildilar, ular asosida yangi kuy va ashulalar yaratdilar.

Maqomlar sozanda va xonandalar tomonidan yakka tarzda, shuningdek, jo'rovoqlik va jo'rnavozlikda ijro etib kelingan. Xususan, Buxoro amirlari saroyida eng so'nggi davrda jo'rnavozlik asosan, 2 tanbur, 2 doira (doirachilar xonanda ham bo'lgan), afg'on rubobi, sato yoki qo'biz, imkonga ko'ra bo'lamon cholg'ularidan iborat bo'lgan. Maqom ijrochiligida tanbur yetakchi soz hisoblanadi. Chunki u torlarini maqom pardalariga moslab sozlashda va maqom yo'llarini mukammal yangratishda birmuncha qulayliklarga ega. Doira esa sozanda va xonandalarning shashmaqom qismlarini belgilangan usul negizida ijro etishlari uchun zarur vosita bo'lib xizmat qiladi.

Har bir maqomning bosh tovushqatori o'ziga xos va nisbatan barqaror bo'lib, turkumning to'liq musiqiy ijro jarayonida uning pardalarida ayrim o'zgarishlar ham

sodir bo‘lib turadi. Chunki shashmaqom shakllanishida maqomlar tarkibiga 12 maqomdan mazkur maqom pardalariga yaqin, kuy mavzui tabiatiga ohangdosh o‘zga sho‘ba va maqom yo‘llari ham kiritilgan. Ularning ladtonalligi asosiy maqom yo‘llariga ba‘zan mos kelmasligi ham mumkin.

Shashmaqomni tashkil etgan maqomlarning har biri ikki — cholg‘u (mushkilot) va ashula (nasr) yirik bo‘limlaridan iborat. Cholg‘u bo‘limlarida bir xil nom bilan ataluvchi cholg‘u qismlari mavjud bo‘lib, ohanglari o‘zlari mansub bo‘lgan maqom kuyiga xos, doira usullari esa bir xildir. Ulardan asosiylari Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas va Saqil deb ataladi. Bu qismlar maqom nomlariga qo‘shib (mas, Tasnifi Buzruk, Tarjei Dugoh, Garduni Segoh kabi), ayrimlari esa bastakorlar nomi bilan birga (mas, Muxammasi Nasrullovi, Saqili Islimxon) ataladi. Ba‘zi cholg‘u qismlari alohida nomga ega (mas, Nag‘mai Orazi Navo), Dugoh va Segoxda esa maqom nomi bilan qo‘shib aytiladi (mas, Peshravi Dugoh, Samoii Dugoh, Xafifi Segoh). Shashmaqomning cholg‘u qismlari xona va bozgo‘y kuy tuzilmalaridan tashkil topadi. Bunda muntazam ravishda o‘zgaruvchi xonalarning rivojlanishi uchun qo‘llanadigan peshrav uslubi alohida ahamiyat kasb etadi. Tasnif, Tarje, Nag‘mai Oraz, Samoii, Xafif kabi cholg‘u qismlari bir-biriga o‘xshash, kichik hajmli; Gardun va Peshrav birmuncha rivojlangan; Muxammas va Saqil yo‘llari uzun va murakkab doira usullari negizida ijod etilgan. Shashmaqom cholg‘u yo‘llarining ichki tuzilishi murakkab bo‘lsada, o‘zining ravon ohangdorligi va rangbarangligi bilan shu maqom quy mavzulari bilan bevosita bog‘likdir. Bu asarlar teran falsafiy va turfa lirik kayfiyatlarni ifodalaydi, tinglovchilardan esa eshitish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab etadi.

Odatda, shashmaqom cholg‘u qismlari birinketin yaxlit tarzda ijro etilgandan so‘ng uning „Nasr“ bo‘limiga o‘tiladi. Ashula qismlari ancha murakkab shakldagi sho‘balar, ularning tarona yoki shoxobchalaridan iborat. Bular ham yaxlit turkum tarzida ijro etiladi. Shashmaqom ashula bo‘limlari tuzilish jihatidan bir-biridan farqlanadigan ikki toifa sho‘balar guruhidan tashkil topgan; birinchisiga Saraxbor, Talqin, Nasr deb nomlanuvchi sho‘balar va yakuniy Ufar qismi, ikkinchisiga esa, asosan, Savt va Mo‘g‘ulcha nomli sho‘balar va ularning shoxobchalari kiradi. Shashmaqomdagi nomdosh sho‘balar (Saraxbori Buzruk, Saraxbori Navo va boshqalar)ning kuyohanglari turlicha bo‘lsada, doira usuli va kuylariga bog‘lab aytiladigan she‘r vaznlari bir xildir. Sho‘balarining ikkinchi guruhida Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar deb nomlanadigan shoxobchalar mavjud va ular shu nomdagi o‘ziga xos doira usullarida yangraydi. Shashmaqom sho‘balarining rivojlanishida avj va namudlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular ashulaning yirik shakl olishi va mazmunan chuqurlashishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Namudlar maqom yo‘llarida yakka avj yoki guruh tartibida erkin ishlatiladi. O‘tmishda hofizlarning xohish va imkoniyatiga qarab namudlar soni (bir sho‘bada 4 tagacha) o‘zgarib turgan.

Maqomlar ijrochilikda “Klassik musiqa” va “Og`zaki an'anadagi professional musiqa” nomlarida (atamalarida) yuritiladi. Xalqimizning bu boy va murakkab musiqiy merosi azaldan ustoz san'atkorlar tomonidan “og`zaki an'anaviy” uslubda ustozdan shogirdga o`tib bizgacha yetib kelgan. Bu an'anaga aylangan uslub hozirgi davrda ham asosiy omil sifatida ardoqlidir.

Bir necha yillardan mumtoz musiqa namunalarini iste'dodli yosh xonanda va sozandalar tomonidan o`zlashtirilishi an'anaga aylandi. Ayniqsa, maxsus musiqa maktablari, san'at, madaniyat va pedagogika kollejlari o`qitilishi quvonarli. 1972 yilda Toshkent Davlat konservatoriyasi qoshida “Sharq musiqa kafedrası”ning tashkil topishi ham diqqatga sazovor. Bu oliygohda asosan xalq va xalq og`zaki an'anadagi professional musiqasi bo`lmish maqomlarni an'anaviy ijro uslublarini xonanda va sozandalar amaliy o`zlashtiradilar.

An'anaviy musiqadan saboq olishda ular asosan maqomlarga tayanadi. Chunki maqom azaldan xalqimizning turmush tarzi ifodalangan musiqiy janr sifatida xalq musiqasida doimo yetakchi bo`lgan. Bundan tashqari maqomlarda musiqa ilmiga, ijrochiligiga va musiqaning boshqa xususiyatlariga bog`liq olam-olam tushunchalar, ma'nolar va asoslar mujassamlashgan. Bu an'anani ma'lum darajada egallagan har bir san'atkor el-yurt mehrini qozonishi, tabiiy.

Shashmaqom cholg`u, ashula bo`limidagi kuy va ashula yo`llarining eshituvchilarga to`g`ri yetib borishi, ularga zavq va lazzat bag`ishlay olishi, ularning boshqa musiqa asarlari kabi yaxshi ijro etilishiga bog`liq.

Shashmaqom va boshqa katta formadagi xalq musiqa asarlarini ijro etishda cholg`uvchi va hofiz maxsus malaka hosil qilgan bo`lishi, maqomlarni ijro etish texnikasini yuksak egallagan bo`lishi kerak. Sifatsiz ijro etish maqom yo`llari haqida noto`g`ri tasavvur qoldiradi. Maqom ijrochiligida bir hofizning aytish uslubi ikkinchisiga hech o`xshamaydi. Maqom yo`lini turli hofizlar xatto variantlar darajasida ijro etish mumkin, chunki har bir hofiz ashula yo`lini puxta va chiroyli ijro etish uchun o`z ovoziining imkoniyatlari doirasida unga ma'lum o`zgarishlar kiritadi.

Hofiz ovoziining kuchi va baland-pastligiga harab, ashulada mavjud bo`lgan kuy bo`laklarini qisqartirib yoki ularga namudlarga o`xshagan qismlar kiritish mumkin. Masalan; Buxorolik hofizlar Qo`qon Ushshoqiga Segox, Ushshoq, Uzzol va Muxayyari Chorgoh namudlarini qo`shib aytgan bo`lsalar, Farg`ona vodiysida esa faqat Nomudi Segoh bilan cheklanganlar. Tojikistonda unga Zebo pari avjini ham qo`shib ijro etganlar.

Buxorolik hofizlarning maqomlarni ijro etish uslubida o`ziga xos yuksak texnika, qochirimlar borligini aloxida qayd etib o`tish lozim. Bunday ijrochilik uslubini juda qadim zamonlardan Markaziy Osiyoning markaz shahri Buxoroda shakllangan ijrochilik an'anasining mahsuloti, deb qarash lozim. Shuning uchun ham maqomlar ijrochiligida “sheva” masalasi ham hisobga olinishi kerak. O`zbek-tojik musiqasi

ijrochiligida ham “sheva” nuqtai nazaridan turli viloyat va shaharlar o`rtasida ba'zi farqlar mavjuddir. Masalan, Buxoro aytish uslubida kuylanib kelingan ma'lum bir kuy yoki ashula Toshkent, Farg`ona shevalarida ijro etilsa, boshqacharoq tusga kiradi yoki aksincha.

Mashq aniq pedagogik yo`nalishda har bir o`quvchini imkoniyatiga qarab qulay tanlanadi. O`quvchi har bir mashqni maqsadini bilish kerak, natijada shunga erishish uchun. Vokalizlar mashqdan badiiy asarga o`tkazuvchi musiqiy material hisoblanadi. Badiiy asar o`qituvchi tomonidan yuksak odob, nazokat bilan tanlangan bo`lishi zarur. O`qituvchi asarning musiqiy, vokal-texnik, ijrochilik qiyinchiliklarini tahlil qilishni bilishi eng zarur bo`lgan sifatidir. O`qituvchining ko`p pedagogik musiqiy materiallarini bilishi va uni amalda ko`llashi uning eng katta yutug`idir.

Ko`p pedagogik musiqiy-meteriallarni bilishi va uni tadbiiq etishi o`qituvchining muvoffaqiyatli faoliyati uchun muhim shartdir. O`quvchi asar ustida mustaqil ishlash usullarini bilish kerak. Shunda har xil, keng va boy repertuarga erisha oladi.

Ashula ijrochiligi - ruhiy va jismoniy holatni harakatlantiruvchi musiqiy tasavvur. Ovozning eshitilishi ovozni harakatlantiruvchi apparatini o`ziga xos xususiyati, musiqiy qiyofasi va ko`rinishi bilan bog`lanib borishi kerak. Vokal malaka, ko`nikmasini hosil qilishda, ko`z oldiga ovozni qanday bo`lishini gavdalantirib, aniq tasavvur qilib, talab qilingan musiqiy vazifani bajarishga javob bera oladigan ovozda aks ettirmoq kerak. Buning uchun musiqiy rivojlanish vokal rivojidan oldin yurishi lozim.

Xulosa: Xulosa qilib shuni ta`kidlash mumkinki, musiqa bilan jonli aloqada bo`lish, musiqa tilini tushunishning eng yaxshi imkoniyatidir. Musiqa-tashqi va ichki dunyosida ro`y beradigan hodisa ma`nosini bildirsagina musiqaviy tilga aylanadi. Texnikani rivojlantirishda o`kuvchiga tushunarli bo`lgan, o`kuvchini ko`lidan keladigan oddiy musiqiy materialidan boshlash kerak. Vokal texnikasini musiqiy ovozning jonliligi, ma`noliligiga erishmasdan alohida olib borish ijroni o`lik qilib qo`yadi. Katta, yetuk san'atkorda musiqiy fikrlashni yuqoriligi sababli uning boy san'atiga yarasha ifoda vositalari imkoniyati, jonliligi yukori talablarga javob beradi va musiqiy ko`rinish jarayoni yanada chuqurlashib, shu bilan birga texnik imkoniyatlarini mukammallashtirilishi unda hech qachon to`xtamaydi. O`qituvchining asosiy maqsadi to`g`ri ovozni tashkil qilib va tarbiyalab yuksak darajaga etkazish.

O`quvchi ovozni to`g`ri boshqarish bilan birga belgilangan aniq musiqiy vazifani bajarishi va ifodali tasvirlab berishi lozim. O`quvchi ijro etishni bajarish bilan bir vaqtni o`zida ijro etish apparatini yuzaga keltirib boradi. Vokal ko`nikmalarini paydo bo`lishida musiqiy-ijrochilik, artitslik vazifasini ahamiyati shunchalik zarurki, buni biz alohida belgilab qo`yishimiz shart va uni esdan chiqarmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari". Toshkent."O'qituvchi", 2004
2. Rajabov I., Maqomlar masalasiga doir, Toshkent, 1963.
3. Ibrohimov O., Maqom va makon, Toshkent, 1996.
4. Matyoqubov O., Maqomot, Toshkent, 2004.
5. Rajabov, Ishoq; Yunusov, Ravshan; [O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi](#). 2004.